

ADABIYOT DARSLARIDA ALISHER NAVOIYNING HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH, RUBOIY , TUYUQ VA FARDLARI MATNI USTIDA ISHLASH

*Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani 46- umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi*

Abdurozakova Nafisaxon Xurmuxamatovna

Kirish

Bugungi kunda fan, madaniyat, axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanib borayotgan mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish eng asosiy masalaga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997 yil 29 avgust) da qabul qilingan hamda bugungi kunda g'oyalari amaliyotga keng ko'lamda muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyatini to'laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim. Chunonchi, mazkur jarayonning uchinchi bosqichi (2005 va undan keyingi yillar)da "... ta'lim muassasalarini moddiy resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlash" kabi dolzarb vazifalar ijobiy hal etilmog'i lozim. Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimi xodimlari, pedagog-o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarning

oma tili va adabiyot fanini o'qitishda yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi. Darsni qanday tashkil etish, unda qanday metodlardan va usullardan foydalanish o'qituvchining ixtiyoriy yondashuviga bog'liq, bunda unga aniq qolip berilmaydi. Demak, ko'zlangan maqsadga erishmoqchi bo'lgan pedagog darsni shunday tashkil etsinki, toki o'quvchilar mavzuni qiynalmasdan tushunib olsin, fanga bo'lgan qiziqishi yanada kuchaysin. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchining mahoratiga bog'liq, uning qo'llagan innovatsion texnologiyalariga bog'liq. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, talabalar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega.

Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- talabalar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- talabalarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- talabalarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shartsharoitlarni yaratishi;

-pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarning ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Quyida ona tili va adabiyot darslarida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati, samaralari va ulardan foydalanish borasida so'z yuritimiz.

Kirish

Adabiyot darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'alariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili va adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda. Albatta bunday vazifalar innovatsion texnologiyalar, turli xil interaktiv o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Demak, endi o'qituvchidan an'anaviy darsdan noan'anviy darsga o'tish talab etiladi:

Noan'anaviy darsning asosiy yo'nalishlari:

- a) o'quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish;
- b) o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;

- d) o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish;
- e) olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va boshqalarga o'rgatish va hokazo.

Adabiyot darslarida noan'anaviy darslarni interaktiv metodlar va o'yinlarsiz tasavvur etish qiyin, zero bular darsning o'zagini tashkil etadi. Interfaol metodlarni o'quv jarayonida qo'llash alohida ahamiyatga ega. Darslarda qo'llanadigan interaktiv usullar o'quvchilarda o'z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq sohibi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Quyida mana shunday metodlarni ko'rishimiz mumkin. "Alisher Navoiy hayoti va ijodi" mavzusiga oid mashg'ulotlarda, "Savol-javob" metodi, "Klaster" grafik organayzeri, "Insert" grafik organayzeri, "Debat" metodi, "Yagona davra" strategiyasi, "Venn diagrammasi" grafik organayzeri, "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" (BBB) grafik organayzeri, "Bahs-munozara" strategiyasi, "Aqliy hujum" metodi kabilardan foydalanish mashg'ulot samaradorligining oshishiga zamin yaratadi.

"Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" (BBB) organayzeri talabalarga muayyan mavzu bo'yicha bilimlar darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo'llashda talabalar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg'ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Guruhlar faoliyati quyidagi ko'rinishlarda tashkil etiladi:

Har bir guruh umumiy sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi; mashg'ulot yakunida loyiha bndlari bo'yicha guruhlarining munosabatlari umumlashtiriladi. Guruhlar umumiy sxemaning alohida bndlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarib, g'oyalarni umumlashtirishadi. O'quv faoliyati yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi va namunasi ko'rsatilganidek, talabalarning fikrlari bilan to'ldirilgan jadvallar mashg'ulot so'ngida o'qituvchiga taqdim etiladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Navoiy 16 ta lirik	Navoiyning Lutfiy	"Ilk devon"dagi

janrda ijod qilgan	va Sakkokiydan ta'sirlanga-niga dalil bo'luvchi baytlar	lirik janrlar
“Xazoyin ul-maoniy”ni tartib berishda umrning 4 faslga bo'lgan	Mug'bacha obrazining estetik mohiyati	“Badoye' ul-bidoya”da “Ilk devon” haqida keltirilgan ma'lumotlar
Devonlari 8 ta bo'lib, ulardan biri muxlislari tomonidan tuzilgan	Navoiy g'azaliyotidagi rindona uslub	“Badoye' ul-bidoya”dagi devon tartib berish tamo-yillarning mohiyati
Shoir tadrij uslubida g'zallar yozgan	Samoviy timsollarning ma'no-mohiyati	“Xazoyin ul-maoniy”da hamd g'azallar salmog'i-ning ancha ko'pligi